

INGLIZ TILINI O'RGANISHNING ILK BOSQICHIDAGI USTUVOR JIHATLAR

To'ychiyeva Shahrizoda Sherzodovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Akademik litseyi o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishning ilk bosqichida e'tibor qaratish zarur bo'lgan asosiy jihatlar ko'rib chiqiladi. Til o'rganish jarayonida talaffuzni to'g'ri o'zlashtirish, asosiy grammatik qoidalarni o'rganish, so'z boyligini oshirish va oddiy suhbatlar qurishni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Maqolada xat'o qilishdan qo'rqmaslik va o'z-o'ziga motivatsiya berishning ahamiyati ta'kidlanadi. Tilni o'rganish jarayonida muntazam mashq qilish, amaliyotga ko'proq vaqt ajratish va doimiy takrorlash orqali o'rganish samaradorligini oshirish mumkinligi haqida gapiriladi. Maqola boshlang'ich bosqichdagi til o'rganuvchilarga samarali va muvaffaqiyatli o'rganish uchun yo'nalishlar beradi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, so'z boyligi, takrorlash, fonetika, talaffuz, tinglash, gapirish.

Hozirgi vaqtda chet tillarini oson va qulay sharoitda o'rganish va o'rgatishga alohida e'tibor berilmoqda. Chet tillarni o'rganish orqali dunyoviy bilimlarni egallash, xalqaro muosabatlarda ishtirok etish va chet davlatlarda o'qish, ishlash hamda sayohat qilish imkoniyatlarini oshirish kabi masalalar ko'zda tutiladi. Shu sababli bugungi kunda chet tilini, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Biz ushbu tadqiqotimizda ingliz tilini o'rganishning ilk bosqichlarida nimalarga e'tibor qaratish zarurligi va oson va samarali o'rganishning ba'zi jihatlari haqida fikr yuritamiz.

Ingliz tilini o'rganishning ilk bosqichida bir nechta ustuvor jihatlar mavjud, ularning har biri muvaffaqiyatli til o'rganishga yordam beradi. Ingliz tilidagi ba'zi tovushlar o'zbek tilida mavjud emas, shu sababli ingliz tili fonetikasini mustahkam o'rganib olish muhim ahamiyat kasb etadi. [masalan: /θ/ /ð/ /æ/ /ʒ/ /ŋ/ /ə/ (Schwa)]

Ingliz tilidagi tovushlarni o'rganish va har bir tovushni qanday chiqarishni tushunish juda muhim jihatlardan biridir. Bunda YouTube'dagi talaffuz darslari, onlayn kurslar yoki ilovalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ingliz tilida talaffuz juda muhim, chunki ba'zi so'zlarning talaffuzi o'xshash bo'lsa ham, ma'nolari farq qiladi.

1. "piece" /pi:s/ (bo'lak) va "peace" /pi:s/ (tinchlik)
2. "write" /rait/ (yozmoq) va "right" /rait/ (to'g'ri)
3. "flower" /'flaʊə/ (gul) va "flour" /'flaʊə/ (un)).

To'g'ri talaffuzni o'rganish, tushunishni osonlashtiradi va muloqotda xatoliklardan saqlaydi. Buning uchun audio materiallardan foydalanish, so'zlarni tinglash va o'z talaffuzini tekshirish foydali bo'ladi. O'rganish jarayonining dastlabki bosqichlarida, kundalik hayotda tez-tez uchraydigan so'zlar va iboralarni o'rganish kerak. (Social media, food, money, work) Bu sizning tilni tushunishingizni tezlashtirishga olib keladi. Ingliz tilining asosiy grammatik qoidalarini o'rganish juda muhim. Dastlabki bosqichda oddiy gap tuzilmalari, zamonlar (present simple, past simple) va modal fe'llar (can, should) kabi muhim grammatik strukturalarni tushunish kerak. (Present Simple Tense (habitual actions, general truths Subject+Verb1(es/s)+Object).

Ingliz tilidagi materiallarni tinglash (audio kitoblar, podcastlar, musiqalar) va o'qish (oddiy kitoblar, maqolalar, veb-saytlar) orqali tilni yanada tushunishga va so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Bu, shuningdek, inglizcha nutqni yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Har kuni yangi so'zlar o'rganish va ularni turli kontekstlarda ishlatishga harakat qilish til o'rganishning samarali usuli hisoblanadi. Bunda yodlagan so'zlar orqali qisqa matnlar tuzish juda samarali jihat hisoblanadi. Shuningdek, so'zlarni yadro va periferiyaga ajratib o'rganish ham muhimdir. Yadro va periferial qismlarning vazifalarini aniqlash, ularni tasniflash tamoyillarini belgilash, o'zaro aloqa va ta'siri tabiatini ochib berish juda ko'p yondosh til hodisalarining mohiyati, sodir bo'lish mexanizmini anglash va tushuntirib berishga yordam beradi [3, Sh.T.Normo'minov].

Ingliz tilida muloqot qilishda ishtirok etish, tilni tez va samarali o'rganishga yordam beradi. Bu hatto oddiy so'zlashuvlar, masalan, salomlashish yoki o'zini tanishtirish kabi

vazifalarni o'z ichiga oladi. (Hello, Goodbye, I'm from...). Shuningdek, ingliz tilini oson o'rganishda quyidagilarga ham alohida e'tibor qaratish zarur:

1. **Kundalik mashq qilish:** Ingliz tilini o'rganishda muntazam mashq qilish muhim. Har kuni kamida 15-20 daqiqa davomida yangi materiallarni qayta ishlash va amaliyot qilish, o'rganishni yanada samarali qiladi.
2. **O'zgalar bilan suhbatlashish:** Ingliz tilida gaplashish uchun imkoniyat yaratish (masalan, til almashish guruhlariga qo'shilish) o'z ishonchingizni oshiradi va nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.
3. **Xato qilishdan qo'rqmaslik:** Tilni o'rganish jarayonida xatolar qilish tabiiy. Xatolardan qo'rqmaslik va ular orqali o'rganish zarur. Har bir xato sizning tilni yaxshiroq o'zlashtirishingizga yordam beradi.
4. **O'zlashtirilgan materialni mustahkamlash:** Har bir yangi mavzu yoki qoidani o'rganib chiqqach, uni takrorlash va amaliyotda qo'llash kerak. Bu, o'rganilgan bilimlarni yodda saqlashga yordam beradi.
5. **O'z-o'zini baholash va maqsad qo'yish:** O'z o'rganish jarayoningizni kuzatib borish va aniq maqsadlar qo'yish sizga motivatsiya beradi. Masalan, har kuni 30-50 ta yangi so'z o'rganish yoki har kuni 10-15 daqiqa ingliz tilida audio tinglash, multfilimlar ko'rish kabi kichik maqsadlar qo'yish foydalidir.

Bularning barchasi boshlang'ich bosqichdagi o'rganuvchilar uchun foydali va samarali metodlardir.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun bir qancha samarali ishlar va usullarni ko'rib chiqish mumkin. Quyidagi masalalar va ularni hal qilish usullari yordamida til o'rganish jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Ingliz tilidagi grammatik qoidalar (zamonlar, fe'l shakllari, artikllar) o'zbek tiliga qaraganda farq qiladi, bu esa o'rganishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, so'z boyligining kamligi, tilni tinglashda tushunmaslik, suhbatda ishtirok etishdan cho'chish va xato qilishdan qo'rqish

ham asosiy muammolardan hisoblanadi. Ularni quyidagi tavsiyalar orqali bartaraf etish mumkin.

- 1) Asosiy qoidalarni o‘zlashtirish: Grammatikaning asosiy qoidalariga diqqat qaratish va oddiy gap tuzilmalari bilan boshlash;
- 2) Mashqlarni doimiy ravishda bajarish: Grammatikani mustahkamlash uchun yozma mashqlar va gaplar qurish;
- 3) Onlayn grammatik darslar: YouTube yoki onlayn platformalarda ingliz tilining grammatikasini tushuntiradigan videolarni ko‘rish;
- 4) So‘zlar va iboralarni guruhlash: Yangi so‘zlarni mavzu bo‘yicha guruhlash (masalan, kun tartibi, oila, ish joyi). So‘zlarni mavzular bo‘yicha guruhlash osonroq yodlashga yordam beradi. Har bir guruhdagi so‘zlar bir-biri bilan bog‘liq, bu ularni eslab qolishni osonlashtiradi.
- 5) Flashcard ilovalari: Kahoot, Quizlet kabi ilovalar yordamida so‘zlarni qayta ko‘rib chiqish va yodlash. Flashcard ilovalari yordamida yangi so‘zlarni o‘rganish va ularni takrorlash. Bu usul yangi so‘zlarni tez va samarali eslab qolishga yordam beradi.
- 6) Kundalik mashq qilish: Har kuni kamida 10-20 yangi so‘z o‘rganish va ularni gaplarda ishlatishga harakat qilish. Boshlang‘ich bosqichda oddiy so‘zlar va iboralar bilan suhbat qurish.
- 7) Do‘stlar yoki o‘rgatish guruhlariga qo‘shilish: Til almashish yoki ingliz tilini o‘rganayotgan boshqa odamlarga yordam berish va suhbat qilish. Til almashish guruhleri yoki onlayn suhbatlarga qo‘shilish, amaliyot qilish uchun imkoniyat yaratadi. O‘rganilgan materialni muntazam ravishda muloqotda qo‘llash, bu xatolarni kamaytiradi va ishonchni oshiradi.
- 8) Tinglashni qadam-qadam qilish: Avval sekinroq gapiradigan materiallardan boshlash, keyin asta-sekin tezroq va tabiiy materiallarga o‘tish.
- 9) Subtitrlardan foydalanish: Ingliz tilidagi videolarni subtitrlar bilan ko‘rish, keyinchalik subtitrlarni olib tashlash. O‘rgangan materialni qayta ko‘rib chiqish va natijalarni baholash.

Bularning barchasi ingliz tilini o'rganishdagi muammolarni bartaraf etishga yordam berishi mumkin. Muhimi, jarayon davomida sabrli bo'lish va doimiy ravishda o'z ustida ishlashdir.

Til o'rganishda so'z boyligi (vocabulary)ni o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Lug'at boyligi til o'rganishda muhim rol o'ynaydi, chunki u tilni tushunish, suhbatlashish, yozish va o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. So'z boyligini oshirish, tilni tez va samarali o'rganishga yordam beradi va til o'rganuvchining kommunikatsiya ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, "vocabulary" o'rganish, nafaqat tilni o'zlashtirish, balki madaniyat va dunyoqarashni ham kengaytiradi. Ingliz tilidagi lug'at boyligini oshirish uchun quyidagi usullarni birgalikda qo'llash orqali ingliz tilini o'rganish jarayonini osonlashtirishingiz mumkin. Muhimi, sabr va izchillikni saqlashdir. Har kuni kichik qadamlar bilan tilni o'rganishga harakat qiling va natijalarga erishasiz.

Sinonim va antonimlarni o'rganish: Bir-biriga o'xshash yoki teskari ma'nolarga ega bo'lgan so'zlarni o'rganish (masalan, "happy" va "joyful", "hot" va "cold").

Qo'lda flashcardlar yaratish: Kartochkalarga so'zlarni yozib, ular bilan qayta-qayta mashq qilish.

Misollar yordamida o'rganish: Yangi so'zlarni to'g'ri ishlatish uchun ulardan misol gaplar yaratib, ularni o'rganing. So'zlar faqat yodlanib qolmay, balki amalda qanday ishlatilishini tushunasiz.

Kitoblar va maqolalar: Oddiy ingliz tilidagi kitoblar yoki maqolalar o'qish orqali yangi so'zlarni o'rganing. Sizga mos bo'lgan materiallardan boshlang va o'qish davomida yangi so'zlarni yozib oling.

Rasmi lug'atlar: Rasmi lug'atlarda so'zlar tasvirlar bilan birga ko'rsatiladi, bu esa so'zlarni eslab qolishning samarali usulidir.

Kreativ yondashuv: Yangi so'zlarni suratlar yoki diagrammalar bilan bog'lash, bu ularni yaxshiroq yodda saqlashga yordam beradi.

Takrorlash va mustahkamlash: Yangi o'rganilgan so'zlarni muntazam ravishda takrorlash. Haftaning har kuni o'rganilgan so'zlarni ko'rib chiqish, ular esda qolarli bo'ladi.

O'zingizni baholash: Yangi o'rganilgan so'zlar va iboralar bilan o'z-o'zingizni sinab ko'rish. Masalan, so'zlarni yoddan gapirib, gapda ishlatishga harakat qilish.

Yangi so'zlarni yozishda ishlatish: Har kuni yangi so'zlar bilan qisqa hikoyalar yoki izohlar yozish.

Online testlar: Ingliz tilidagi lug'atni oshirish uchun onlayn sinovlardan foydalaning (masalan, **Cambridge English, BBC Learning English** saytlaridagi testlar).

So'zlarni mashq qilish: O'rganilgan so'zlarni takrorlash va eslab qolish uchun sinovlardan foydalanish.

Yuqorida qayd etgan tavsiyalardan tashqari ushbu dastur va ilovalar orqali ham dastlabki bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish mumkin. Birinchisi, duolingo ilovasi - bu ilova yangi so'zlarni o'rganish va ularni amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Ikkinchisi, Memrise orqali so'zlarni vizual va audio tarzda o'rganishingiz mumkin. Uchinchisi, Babbel ilovasi - bu ilova so'z boyligini kengaytirish va grammatikani o'rganishga yordam beradi.

O'rganilgan so'zlar va iboralarni yozib borish va o'zingizga mukofotlar berish. Bu jarayonni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Lug'at boyligini oshirishda eng muhim narsa — doimiy mashq qilish va o'rganilgan so'zlarni turli kontekstlarda ishlatishdir. Bu orqali so'zlar yodda saqlanadi va tezda faol lug'atga aylanadi.

Xulosa qilib aytsak, ingliz tilini o'rganishning ilk bosqichida muvaffaqiyatga erishish uchun, o'rganish jarayonini samarali va tizimli tashkil qilish juda muhimdir. Dastlabki bosqichda talaffuzni to'g'ri o'zlashtirish, oddiy grammatika va so'z boyligini oshirish, shuningdek, o'z-o'zini ifodalash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalarga aylanishi kerak. Kundalik mashqlar, tilni kontekstda o'rganish va amaliyotga ko'proq vaqt ajratish, o'rganish samaradorligini oshiradi. Xatolar qilishdan qo'rqmaslik, o'zgarishlarga ochiq bo'lish va motivatsiyani saqlash muhim omillardir. Umuman olganda, bu

bosqichdagi asosiy maqsad tilni ishlatish va tushunishdan qo‘rqmaslik, bu esa keyingi bosqichlarda yanada chuqurroq bilim olishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001.
3. Sh.T.Normo‘minov. SO‘Z TURKUMLARIDAGI YADRO VA PERIFERIAL QISMLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSLAR. Til va adabiyot ta’limi jurnali, 2020 yil 1-son. Toshkent.